



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева</b> Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
<b>Laziz Niyozovich Xudoyorov</b> Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova</b> Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов</b> Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
<b>Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov</b> Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
<b>Ирода Аминжоновна Умурзакова</b> Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
<b>Botir Hayat Muradov</b> Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
<b>Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov</b> Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Ойдин Давроновна Хамракулова</b> Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
<b>Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev</b> Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Shaxnoza Ergashevna Samandarova</b> Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

2. Mirziyoyev Sh.M. Zamonaviy va yangi O‘zbekiston. - Toshkent: "O‘zbekiston" NMIU, 2024.- 560 b.
3. Egamberdiyev E., Turabdjanyov S., Akmalova G., Mukhtarova N., Ayubova I., Mirzakhmedova M., Rakhmonberdiyev G. Obtaining paper from composition of different fibers and its analysis. E3S Web of Conferences, 2023, 371, 01004, DOI 10.1051/e3sconf/202337101004
4. Muradov B.X. Innovations in the economy and public sector: introduction to the problem, Журнал Young Scientist Research Journal of Karakalpakstan, Том-2, NNUC, 2023/12/7. Страницы 301-308,
5. Мурадов Б.Х., David Teece. Monitoring and diagnostics of organizational and economic mechanisms of the industrial branch. Журнал Industrial Economics and management: materials of the III international scientific and practical conference on the topic of problems and solutions. Collection of articles and abstracts. Том 1. 2023/5/2. Страницы 51. Uzmu. Tashkent.
6. Мурадов Б.Х. Совершенствование социально экономического инструментария планирования производственной деятельности развития механизмов в угольных предприятиях для повышения ее эффективности. Современные инновационные технологии в области нефти и газа. республиканское научно-техническая конференция сборник. Том 1. 2023/5/12. Страницы 307. TDTU.

<b>Б.Мурадов</b>	<b>B.Muradov</b>
<b>Проблемы и решения перехода горнодобывающих предприятий к зеленой экономике</b>	<b>Problems and solutions for the transition of mining enterprises to a green economy</b>
<b>Аннотация.</b> В статье объясняется содержание концепции повышения эффективности и стратегического управления за счет внедрения новых современных технологий в горнодобывающей и металлургической промышленности при развитии экономики. Исследуются методы эффективного стратегического управления на предприятиях и организациях горнодобывающей, металлургической промышленности, способы обеспечения конкурентоспособности промышленных предприятий и повышения эффективности планирования.	<b>Abstract.</b> This article explains the content of the concept of increasing efficiency and strategic management through the introduction of new modern technologies in the mining and metallurgical industries in the development of the economy. The methods of effective strategic management at enterprises and organizations of the mining and metallurgical industries, ways to ensure the competitiveness of industrial enterprises and improve planning efficiency are studied.
<b>Ключевые слова:</b> промышленные предприятия, металлургия, стратегическое управление, конкуренция, инновации, менеджмент, эффективность, планирование.	<b>Keywords:</b> industrial enterprises, metallurgy, strategic management, competition, innovation, management, efficiency, planning.

**Zuhriddin Nuriddinjon o‘g‘li Salohiddinov** – Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

### **IQTISODIY JARAYONLARDA RESURSLARDAN FOYDALANISH VA TAQSIMOT MODELLARI**

<p><b>Annotatsiya.</b> Ushbu maqolada globallashuv sharoitida resurslardan samarali foydalanish va uni to‘g‘ri taqsimlash borasida resurs modellaridan foydalanishning dolzarb qirralari bayon etilgan. Shuningdek rivojlangan mamlakatlarda ushbu sohada foydalanib kelinayotgan modellar to‘g‘risidagi yondashuvlar keltirilgan. Ushbu modillardagi ayrim kamchiliklarga to‘xtalib o‘tilib, modillardan mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim turlari haqida fikr yuritilgan. Soha doirasida tegishli tavsiyalar berilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> resurslar tanqisligi, “aqli” iqtisodiyot, raqamlashtirish, iqtisodiy rentabellikni oshirish, resurslarni yetkazib berish, taqsimlash va nazorat qilish, ichki resurslar, modellar.</p>
---

**Kirish.** Globallashayotgan iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida resurslardan foydalanish va uning taqsimotida resurs modellaridan foydalanish doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Buning sababi, raqamli transformatsiya va global raqobat davrida resurslarni samarali

boshqarish har qanday tashkilot uchun nafaqat afzallik, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Ilg'or jahon amaliyotini o'rganish nafaqat jarayonlarni optimallashtirish, balki barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu masalaning tadqiq etishning dolzarbligini bir qator omillarda ko'rish mumkin. Jumladan, resurslar tanqisligining ortib borishi va jahon bozorlarida ularning narxining beqarorligi; resurslar bilan ta'minlash tizimlarini raqamlashtirish va “aqlli” iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish zarurati; yo'qotishlarni minimallashtirish va moddiy, moliyaviy oqimlarni oqilona taqsimlash zarurati; korxonalarining barqaror rivojlanishga va har bir resurs turi bo'yicha iqtisodiy rentabellikni oshirishga intilishi va shu kabilar.

Shunday qilib, resurslar bilan ta'minotidan samarali foydalanish modelini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib, uning yechimi resurslarni yetkazib berish, taqsimlash va nazorat qilish jarayonlarini optimallashtirish, shu orqali korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va innovatsion salohiyati o'sishini ta'minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Iqtisodiyot sohasining tadqiqot obyekti sifatida soha olimlarining tadqiqotlarida resurs salohiyati bo'yicha ilmiy-nazariy, amaliy yondashuvlarini tadqiq etish zarur.

Mahalliy olimlarimizdan A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, A.Ortiqov, M.Q.Pardayev, I.T.Abdukarimov, A.A.Abdiyev, E.X.Maxmudov, V.V.Ergashboyev, E.A.Akromov larning ilmiy ishlarida moddiy resurslar va ularning mazmun-mohiyati, guruhlanishi, ularni baholash, boshqarish va tahlillariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan<sup>1</sup>.

Korxonalarini resurslar bilan ta'minlash, shuningdek, resurs modellaridan foydalanish muammolari MDH olimlaridan S.S.Axmedova, A.N.Vasenev, I.B.Gurkov, K.V.Kosenkov va shu kabi mutaxassislarining ishlarida<sup>2</sup> ko'rib chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada nazariy-metodologik tahlil usulidan foydalanilib, sohadagi bir qator olimlarning iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan resurslar va ularni samarali taqsimlash borasidagi ilmiy yondashuvlari o'rganildi, bayon etildi. Bu tahlil resurs modellarini nazariy jihatdan asoslash va milliy iqtisodiyot uchun mos variantlarni aniqlashga yordam berdi. O'zbekistondagi resurs ta'minoti va undan foydalanish tizimi muammolari o'rganilib, mantiqiy, qiyosiy usuldan foydalangan holda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatda samarali mexanizmlar va ularni milliy sharoitga mos modellari tavsiya etildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, resurs bilan ta'minlash va resurslarga asoslangan modellardan foydalanish mavzusi G'arb iqtisodiyoti va menejmentida, ayniqsa strategik menejment va firma nazariyasi doirasida faol o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlar ko'pincha milliy iqtisodiyot va muayyan tarmoqlar muammolari bilan bog'liq bo'lgan MDHdan farqli o'laroq, G'arbda ular asosan individual kompaniya darajasida raqobatdosh ustunlik va barqaror o'sish manbalarini izlashga qaratilgan.

Resursga asoslangan ko'rinish (RBV) nazariyasining asoschilaridan biri Jey Barni. O'zining “Firma resurslari va barqaror raqobat ustunligi” (1991) nomli ishida u kompaniyaning uzoq muddatli raqobatdosh ustunligi uning bozordagi mavqeiga emas, balki o'ziga xos, taqlid qilish qiyin bo'lgan ichki resurslarga asoslanishini ta'kidlaydi.

Maykl Porter o'zining tashqi yo'naltirilgan beshta kuch nazariyasi bilan mashhur bo'lsa-

<sup>1</sup>Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ., Абдиев А.А., Абдукаримов В.А. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й. Акромов Э.А Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003. 43-б. Волжин И.О., Эргашбоев В.В. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил– “Шарқ” нашриёт, Т.:2002. 64-б.Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти: Ўқув.қўлл. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.Ортиқов А.. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). - Т.: ТДИУ, 2009,60-б.

<sup>2</sup> Ахмедова С. С, Оценка ресурсной базы коммерческого банка с использованием инструментов экономико-математического моделирования: автореф. дис. канд. экон. наук - Махачкала, 2004. - 22 с. Васенев А. П., Совершенствование ресурсного обеспечения процессов управления текстильными предприятиями: автореф. дис. канд.экон. наук. - Иваново, 2009. - 20 с. Gurkov И.Б. Стратегический менеджмент организации. Учебное пособие. -М; ЗАО “Бизнес-школа “Интел-Синтез”. 2001. Косенков К. В., Модели оптимального ресурсного обеспечения инвестиционных проектов: автореф. дис. канд. техн. наук. - Воронеж, 2006. -20 с.

da, uning ishi resurslarga asoslangan modellarga ham ta'sir ko'rsatdi. U xarajatlarni oshib borishi yoki farqlanishiga erishishda ichki resurslar muhimligini ta'kidlaydi.

Asosiy kompetensiya nazariyasi C.K. Prahalad va Gary Hamel 1990-yilda o'zlarining “Korporatsiyaning asosiy vakolatlari” nomli maqolalarida ular kompaniyaning raqobatdosh ustunligi uning “asosiy vakolatlari” deb nomlangan noyob ko'nikmalar va texnologiyalar to'plamidan kelib chiqadi degan g'oyani ishlab chiqdilar. Ushbu vakolatlar kompaniyaga keng turdagi mahsulotlarni yaratish va turli bozorlarga kirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Uilyams va Jonson kabi g'arb olimlari raqamli iqtisodiyot kontekstida resurs modellarini ishlab chiqishda davom etib, quyidagilarga e'tibor qaratishmoqda: raqamli resurslar: ma'lumotlar, dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt algoritmlari; dinamik imkoniyatlar: kompaniyaning bozor o'zgarishlariga javoban o'z resurslarini tezda moslashtirish va qayta qurish qobiliyati; barqaror rivojlanish: ekologik va ijtimoiy resurslarni umumiy boshqaruv tizimiga kiritish.

Qayd etish joizki, korxonalarni rivojlantirish jarayonida resurslar bilan ta'minlash va resurs modellaridan foydalanishning xorijiy tajribasi ushbu korxonaning joriy va istiqboldagi faoliyati uchun zarur bo'lgan sifatli resurslarni ta'minlash bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, resurslarning sifatini kompleks baholash har doim ham tavsiya etilmaydi. Bir qator hollarda, resurslar bilan ta'minlash va sanoat korxonalarining resurs modellaridan foydalanish doirasida ayrim sifat mulkini faqat differentsial baholashga ega bo'lish kerak. Ammo, zamonaviy iqtisodiy sharoitda resurslar bilan ta'minlash va resurs modellaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, resurslarning sifati resurslarning xususiyatlari to'plamini o'rganish asosida baholanishi kerak, chunki yagona raqam sifatida taqdim etilgan hech qanday mulk sanoat korxonasining resurslarini ularning xilma-xilligi, tuzilishi, shuningdek korxonaning uzoq muddatli faoliyati uchun maqsadlarni belgilash xususiyatlarini hisobga olgan holda to'liq tavsiflay olmaydi<sup>1</sup>.

Iqtisodiyotda resursdan samarali foydalanish va optimal ta'minoti iqtisodiyot, menejment va ekologiya kabi ko'plab sohalarda asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni tartibga solish va optimallashtirish uchun turli modellar mavjud. Resurslardan foydalanish va uning ta'minotiga oid ayrim modellarni ko'rib o'tishimiz mumkin:

**1-jadval**

**Resurslardan foydalanish va uning ta'minotiga oid modellar**

<b>Modellar nomlanishi</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>
1. Iqtisodiy samaradorlik va taqsimot modellari. (Models of Economic Efficiency and Resource Allocation).	Bu modellar cheklangan resurslardan maksimal darajada samara olishga qaratilgan.
a).Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi (Production Possibility Frontier - PPF): Bu grafik model iqtisodiyotda mavjud resurslar va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal kombinatsiyasini ko'rsatadi.	
b).Chiziqli dasturlash (Linear Programming): Bu matematik model cheklangan resurslar (materiallar, vaqt, ishchi kuchi) sharoitida foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirish uchun qo'llaniladi. U resurslarni eng optimal ravishda taqsimlashga yordam beradi. Maqsadi: Qat'iy cheklovlar asosida eng yaxshi qarorni qabul qilish.	
2. Barqarorlik va ekologiya modellari.	Bu modellar resurslardan foydalanishning atrof-muhitga ta'sirini hisobga oladi va ularni uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.
a). Aylanma iqtisodiyot modeli (Circular Economy): An'anaviy "ol, ishlab chiqar, tashla" (linear) modelidan farqli o'laroq, aylanma iqtisodiyotda chiqindilar kontseptsiyasi yo'q. Resurslarning qiymati imkon qadar uzoq vaqt saqlab qolinadi, mahsulotlar esa qayta ishlanadi, ta'mirlanadi va qayta foydalaniladi.	

<sup>1</sup> Попков В.П., Семенов В.П. Организация и финансирование инвестиций. Москва. Харьков. Минск. Изд-во «ПИТЕР», 2001. С. 67

b). “Beshikdan beshikka” modeli (Cradle-to-Cradle): Bu model mahsulot dizaynida resurslarning to‘liq qayta ishlanishini ta‘minlashni maqsad qiladi. Unga ko‘ra, mahsulotlar ikki toifaga ajratiladi: biologik tsiklda (kompostga aylanadigan) va texnik tsiklda (qayta ishlanadigan) ishlatilishi mumkin bo‘lgan materiallardan tayyorlanadi. Maqsadi: Ishlab chiqarish jarayonida chiqindilarni butunlay yo‘q qilish.	
3. Menejment va logistika modellari.	Bu modellar biznes-jarayonlarda resurslarni boshqarishga qaratilgan.
a). “Aynan o‘z vaqtida” tizimi (Just-in-Time - JIT): Bu modelga ko‘ra, ishlab chiqarish uchun kerakli resurslar faqat ular talab qilingan paytdagina yetkazib beriladi. Bu omborlardagi zaxiralarni kamaytiradi va xarajatlarni tejaydi. Maqsadi: Resurslarga bo‘lgan talabni va ularning yetkazib berilishini sinxronlashtirish.	
b). Resurslarni tekislash (Resource Leveling): Loyiha menejmentida qo‘llaniladigan bu model loyiha davomida resurslardan (masalan, ishchi kuchidan) foydalanish jadvalini silliqlashga qaratilgan. U ish yuklamasining keskin ko‘tarilishi yoki pasayishini oldini olib, resurslarning muntazam ishlatilishini ta‘minlaydi. Maqsadi: Resurslardan oqilona va izchil foydalanish.	

Yuqorida keltirilgan modellarning har biri o‘z sohasidan kelib chiqib, resurslardan foydalanish muammolariga turlicha yondashadi. Ular biznes-jarayonlardan tortib, global iqtisodiy va ekologik strategiyalargacha qo‘llaniladi.

Biroq ushbu modellardan har qanday iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarda, o‘zgaruvchan tashqi muhit sharoitida samarali foydalanish mumkin emas. Chunki, bu modellarni o‘ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Jumladan:

1. Iqtisodiy samaradorlik va taqsimot modellari. (Models of Economic Efficiency and Resource Allocation). Bu modelning ayrim turida davlat aralashuvi minimal; ijtimoiy tengsizlik yuzaga kelishi mumkin bo‘lsa, yana bir turida davlat aralashuvi yuqori, bozor mexanizmlari cheklanadi, mexanizmlar muvozanatini topish qiyin, katta sarmoya talab qiladi, tavakkalchilik yuqoriligini ko‘rish mumkin.

2. Barqarorlik va ekologiya modellari (Sustainability and Ecological Models). Bu modelda real ekologiya jarayonlarini soddalashtirib ko‘rsatishi mumkin; iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiyaviy omillarni uyg‘unlashtirish qiyin; uzoq muddatli natijalarni aniq baholashda noaniqlik yuqori; ma‘lumotlar va prognozlar ko‘pincha subyektiv yoki cheklanganligini ko‘rish mumkin.

3. Menejment va logistika modellari (Management and Logistics Models). Bu modellar ko‘pincha ideallashtirilgan va amaldagi biznes jarayonlarini to‘liq aks ettirmaydi, xalqaro ta‘minot zanjirlarida tashqi xavflarni hisobga olish qiyin, iqtisodiy, texnologik va ekologik omillarni uyg‘unlashtirish qiyin, katta ma‘lumotlar bazasi va raqamli texnologiyalarga talab yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi kunda resurs ta‘minoti va undan foydalanish borasida yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan bir qancha muhim modellar mavjud. Ular tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitga zararni kamaytirishga qaratilgan. Jumladan:

1. “Beshikdan beshikka” modeli (Cradle-to-Cradle - C2C). Bu model aylanma iqtisodiyotning yanada rivojlangan shakli bo‘lib, asosan mahsulotlarni loyihalashga qaratilgan. Uning asosiy g‘oyasi “chiqindi - bu ozuqa” deb nomlanadi. C2C modeliga ko‘ra, mahsulotlarning barcha materiallari ikkita siklga bo‘linadi: biologik sikl: tabiatda biologik parchalanib, tuproqqa qaytadigan materiallar (masalan, organik kiyimlar yoki kompostga aylanadigan qadoqlash materiallari); texnik sikl: yuqori sifatli holda qayta ishlanib, yangi mahsulotlar yaratish uchun foydalaniladigan materiallar (masalan, plastmassa, metall yoki shisha). Ishlab chiqarish tizimidan chiqindilarni butunlay yo‘q qilish va tabiat bilan uyg‘unlikda ishlash.

2. “Donat” iqtisodiyoti modeli (Doughnut Economics). Bu model Keyt Ravort tomonidan taklif qilingan bo‘lib, u resurs ta‘minotiga kengroq ijtimoiy va ekologik nuqtayi nazardan yondashadi. Model ikkita asosiy chegarani belgilaydi: ijtimoiy asos (ichki aylana): hech kim muhim ijtimoiy ehtiyojlardan (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat kabi) mahrum bo‘lmasligi kerak; ekologik chegara (tashqi aylana): insoniyat sayyoraning ekologik chegaralaridan (iqlim

o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi) chiqib ketmasligi lozim.

O‘zbekiston sharoitida ham resurslardan samarali foydalanish va ta‘minoti modellarini qo‘llashda asosan mamlakatimizdagi ayrim muammolar resurslardan samarali foydalanishda qaysi model afzalligini chuqur tahlil qilgan holda qo‘llashni taqazo etadi. Jumladan: suv tanqisligi va iqlim xavflari resurslardan puxta va uyg‘un foydalanishni talab qiladi; davlat strategiyalari 2030-yilgacha barqaror o‘shish, yashil iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va energiya ta‘minotini diversifikatsiya qilishni belgilaydi. Bu resurslarni taqsimlash va tejamkor texnologiyalarga o‘tish modellarini talab qiladi.

Quyida mamlakatimizda resurslardan samarali foydalanish va ularni to‘g‘ri taqsimlash borasida qo‘llash mumkin bo‘lgan modellardan namuna ko‘rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

**2-jadval**

**Modellar va ulardan sohalar kesimida foydalanish ma‘lumoti**

Model’	Qaysi sohada eng foydali	Nima uchun
SCOR	Tekstil, agrologistika, farma logistikasi	Zanjirdagi uzilish va xarajatni qisqartirish
LP/VRP/MILP	Suv/energiya taqsimoti, logistika	CHeklangan resursni optimal taqsimlash
Circular/MFA/LCA	SHahar chiqindisi, sanoat	Xomashyo/energiya tejami, emissiya pasayishi
DEA/SFA	Kommunal, sog‘liqni saqlash, ta‘lim	Resurslarni kirish va chiqishiga ko‘ra samaradorlik

SCOR ta‘minot zanjiri modeli (planlash–ta‘minlash–ishlab chiqarish–etkazish–qaytarish). Bu modelning mosligini ichki va eksport logistikasida chegara, temiryo‘l, qo‘shni bozorlarga chiqish murakkabligi uchun SCOR protsess-xarita va mezonlar orqali tanqis resursni oqilona taqsimlaydi. Qo‘llash sohasi paxta–ip–mato–tayyor kiyim zanjiri, meva-sabzavot “sovuq zanjir”, farma logistikasida samarali hisoblanadi.

“Optimal taqsimlash” matematikasi: LP/QP, transport (VRP), aralash butun sonli modellar. Nega mosligini suv, energiya, transport quvvati kabi cheklangan resursni sektorlar va hududlar kesimida rejalashtirishga imkon berishida ko‘rish mumkin. Sug‘orish suvini hududlar kesimida taqsimlash; elektr stantsiyalarida yuk taqsimoti sohasida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Aylanma iqtisodiyot (Circular Economy), sanoat simbioz, MFA/LCA modeli. Bu modelning iqtisodiyotimizga mosligini chiqindilarni resursga aylantirish (energiya, o‘g‘it), import-qiyamatga bog‘liqlikni pasaytirish, energiya tekisligida ko‘rish mumkin.

Samaradorlikni baholash: DEA va SFA (chegaraviy samaradorlik) modeli. Hududiy korxonalar, maktab-bog‘cha, shifoxona, suv ta‘minoti korxonalarida “kirdi–chiqdi”dan kelib chiqib samaradorlikni solishtirish mumkin. Tumanlararo sug‘orish korxonalari, nasos stantsiyalari, kommunal xizmatlar sohasida samara beradi.

**Xulosa va takliflar.** Ilmiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, resurslardan tejamkor foydalanish, energiya balansini diversifikatsiya qilish, chiqindilarni qayta ishlash, ta‘minot zanjirlarini raqamlashtirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda ilmiy asoslangan yechimlar taqdim etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish va optimal taqsimlash uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: tarmoqlarni elektr energiyasi bilan samarali ta‘minotini yo‘lga qo‘yish uchun uzoq muddatli energiya balansi modellarini ishlab chiqish; qayta tiklanadigan manbalar ulushini oshirish va smart hisoblagichlarni joriy etish orqali tarmoq samaradorligini oshirish; sanoat va chiqindilarni boshqarishda aylanma iqtisodiyot modellarini joriy etish, Waste-to-Energy texnologiyalarini rivojlantirish; investitsiya va qaror qabul qilishda investitsiya loyihalarini iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mezonlar asosida baholash; davlat-xususiy sheriklik orqali strategik resurs loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;

<sup>1</sup> [https://gov.uz/en/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/en/pages/2030_strategy).  
<https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap/context-of-renewable-energy-in-uzbekistan>. "Context of renewable energy in Uzbekistan".

monitoring va samaradorlik baholashda korxonalar va hududlar samaradorligini muntazam baholash tizimini joriy etish va boshqa shu kabilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ., Абдиев А.А., Абдукаримов В.А. Матлубот кооперацияси хўжалик фаолиятини таҳлил қилиш.-Т.: Ўқитувчи. 1989 й.
2. Ақромов Э.А Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. – Т.: Молия, 2003.-223 б.
3. Ахмедова С. С. Оценка ресурсной базы коммерческого банка с использованием инструментов экономико-математического моделирования: автореф. дис. канд. экон. наук - Махачкала, 2004. - 22 с.
4. Васенев А. П. Совершенствование ресурсного обеспечения процессов управления текстильными предприятиями: автореф. дис. канд.экон. наук. - Иваново, 2009. - 20 с.
5. Волжин И.О., Эргашбоев В.В.. Молиявий таҳлил.-Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998.
6. Гурков И.Б. Стратегический менеджмент организации. Учебное пособие. -М; ЗАО “Бизнес-школа “Интел-Синтез”. 2001.
7. Иброҳимов А. Т. Ваҳобов А. В. Молиявий таҳлил– “Шарқ” нашриёт, Т.:2002. – 224 б.
8. Косенков К. В., Модели оптимального ресурсного обеспечения инвестиционных проектов: автореф. дис. канд. техн. наук. - Воронеж, 2006. -20 с.
9. Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти: Ўқув.қўлл. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.
10. Ортиқов А.. «Саноат иқтисодиёти» (Дарслик). - Т.: ТДИУ, 2009,320-б.
11. Попков В.П., Семенов В.П. Организация и финансирование инвестиций. Москва. Харьков. Минск. Изд-во «ПИТЕР», 2001. С. 67
12. [https://gov.uz/en/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/en/pages/2030_strategy).
13. <https://www.iea.org/reports/solar-energy-policy-in-uzbekistan-a-roadmap/context-of-renewable-energy-in-uzbekistan>. "Context of renewable energy in Uzbekistan".

<p style="text-align: center;"><b>З.Салоҳиддинов</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Модели использования и распределения ресурсов в экономических процессах</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются актуальные аспекты использования ресурсных моделей для эффективного использования ресурсов и их рационального распределения в условиях глобализации. Также представлены подходы к моделям, применяемым в этой области в развитых странах. Обсуждаются некоторые недостатки этих моделей и рассматриваются некоторые типы моделей, которые могут быть использованы в экономике нашей страны. В рамках данной области даны соответствующие рекомендации.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> дефицит ресурсов, «умная» экономика, цифровизация, повышение экономической рентабельности, предложение, распределение и контроль ресурсов, внутренние ресурсы, модели.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Z.Salokhiddinov</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Models of use and distribution of resources in economic processes</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article describes the current aspects of the use of resource models for the effective use and proper distribution of resources in the context of globalization. Also, approaches to models used in this area in developed countries are presented. Some shortcomings of these models are discussed, and some types of models that can be used in the economy of our country are considered. Relevant recommendations are given within the framework of the field.</p> <p><b>Keywords:</b> resource scarcity, "smart" economy, digitalization, increasing economic profitability, resource supply, distribution and control, internal resources, models.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84  $\frac{1}{8}$ . “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.